

**QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 2-soni)**



IJTIMOY FANLAR

SOCIAL STUDIES

BIBLIOGRAFIYA TUSHUNCHASINING QADIMIY VA ZAMONAVIY TALQINI

*Xudayberdiyeva Zebiniso Maxmadustovna,
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti
Kutubxona – axborot faoliyati kafedrasi o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada hujjatshunoslikning ixtisoslashgan yo‘nalishi bo‘lgan bibliografiya sohasi haqida so‘z yuritiladi. Aynan ushbu termin ilk bor qayerda, qanday qilib vujudga kelgani va uning tarixi, tahlil qilinadi. Shunindek, sohaning rivojlanish yo‘llari va ilmiy jihatdan o‘rganilishi, hozirgi kunda takomillashib borish jarayonlariga urg‘u beriladi.

Kalit so‘zlar : bibliografiya, kitob nashri, bibliograf, qadimgi, bibliografiya, axborot, hujjat.

ДРЕВНИЕ И СОВРЕМЕННЫЕ ИНТЕРПРЕТАЦИИ ПОНЯТИЯ БИБЛИОГРАФИИ

Аннотация: В данной статье рассматривается область библиографии — специализированная область документоведения. Именно там впервые появился этот термин, как он возник и его история будут проанализированы. Кроме того, особое внимание уделяется развитию и научному изучению данной области, а также текущим процессам совершенствования.

Ключевые слова: библиография, книжное издание, библиограф, древний, библиография, информация, документ.

ANCIENT AND MODERN INTERPRETATIONS OF THE CONCEPT OF BIBLIOGRAPHY

Abstract: This article discusses the field of bibliography, which is a specialized area of documentary science. It analyzes where and how this term first appeared, its history, and its development. In addition, the emphasis is on the development and scientific study of the field, as well as the processes of its current improvement.

Keywords: bibliography, book publication, bibliographer, ancient, bibliography, information, document.

KIRISH. “Bibliografiya” so‘zi birinchi marta Qadimgi Gretsiyada qo‘llanilgan. So‘zma-so‘z tarjima qilinganda biblion – “kitob”, grapho – “yozaman” degan ma’noni anglatadi. Kitob

nashr etish ishi boshlangunga qadar bu tushuncha kitobni yozish, ko‘chirib yozish ma’nosida qo‘llanilgan. U vaqtarda kitobni yozish va ko‘chirib yozish qo‘l mehnati bilan amalgalashirilgan. Bu ishni bajarganlarni bibliograflar deb atashgan. O‘scha paytda bibliograflardan alohida mukammal bilim talab etilmasdan, faqat yozishni va o‘qishni bilish talab qilingan bo‘lsa-da, bu ish juda yuqori malakali va istiqbolli ish hisoblangan. Qog‘oz kashf bo‘lgunga qadar O‘rtayer dengizi mamlakatlarida papirus, Mesopotamiyada loy plastinkalardan, Xitoyda ipakdan, Hindistonda palma daraxti barglaridan foydalangan holda axborotning qo‘lyozma shakllarini tarqatishgan.

Miloddan avvalgi III asrda Ellistik Misrda Aleksandriya kutubxonasi turli tildagi milliondan ortiq hujjatlar to‘plangan zamonasining gullab-yashnagan kutubxonasi edi. Uning kutubxonachisi olim va shoir Kallimax hajmiga ko‘ra tarixiy-adabiy va bibliografik ish deb tan olingan va mashhur bo‘lgan, ammo bizgacha saqlanmagan[1].

Kitob nashr etish ishi boshlangunga qadar bu tushuncha kitobni yozish, ko‘chirib yozish ma’nosida qo‘llanilgan. U vaqtarda kitobni yozish va ko‘chirib yozish qo‘l mehnati bilan amalgalashirilgan. Bu ishni bajarganlarni bibliograflar deb atashgan. O‘scha paytda bibliograflardan alohida mukammal bilim talab etilmasdan, faqat yozishni va o‘qishni bilish talab qilingan bo‘lsa-da, bu ish juda yuqori malakali va istiqbolli ish hisoblangan. Qog‘oz kashf bo‘lgunga qadar O‘rtayer dengizi mamlakatlarida papirus, Mesopotamiyada loy plastinkalardan, Xitoyda ipakdan, Hindistonda palma daraxti barglaridan foydalangan holda axborotning qo‘lyozma shakllarini tarqatishgan.

Bibliografiya – bu kitob va boshqa axborot manbalarini tartibga solish, tasniflash va ularning tarqatilishini o‘rganadigan ilmiy soha sifatida tarixan o‘zining rivojlanish jarayonini ko‘rsatib beradi.

Bu tushuncha o‘zining qadimiy va zamonaviy talqinlari orqali nafaqat kitobsozlikni, balki umumiy axborot faoliyatini ham ifodalashda muhim ahamiyatga ega. Qadimgi davrda, ayniqsa qadimgi Yunoniston va Rimda, bibliografiya asosan kitoblar va qo‘lyozmalarni yozish va tarqatish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyatni anglatgan. Biroq, zamonaviy davrda bu tushuncha kengayib, axborot tizimlari, kutubxona ishlari, elektron axborot manbalarini boshqarish kabi ko‘plab sohalarni o‘z ichiga olgan.

Maqolada, bibliografiyaning tarixiy rivojlanishi va uning qadimiy talqinlaridan tortib, hozirgi zamon talqinlarigacha bo‘lgan o‘zgarishlarni tahlil qilib, bu ilmning qanday qilib o‘zgarib, yangi axborot texnologiyalarining kirib kelishi bilan qanday yangilanishlarni amalgalashirgani ko‘rib chiqiladi. Maqsadimiz — bibliografiyaning ahamiyatini chuqurroq anglash va uning ilmiy-texnikaviy rivojlanishiga hissa qo‘shdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Madaniy-ma’rifiy nuqtai nazardan “bibliografiya” tushunchasi ma’lum bir davrda, axborot faoliyatining rivojlanishi boshlanganida shakllanadi, bu davrda jamiyat faoliyatining, madaniyatning eng muhim sohalarini maqsadli ravishda rivojlantirish zarurati anglanadi. Bugungi kunda biz bibliografiyaning tarixidagi to‘rt assosiy davr haqida aniq gapira olishimiz mumkin: I davr — Bibliografiyaning qadimgi Yunonistonda

(miloddan avvalgi V asr) kitob yozish san’ati sifatida paydo bo‘lishi, ya’ni kitob yozuvchisi (“bibliograf”) mehnati; II davr — Bibliografiyaning (XVII-XVIII asrlar) kitob va kitobsozlik (axborot faoliyati) haqidagi umumlashtiruvchi ilm sifatida va maxsus adabiy janr sifatida shakllanishi; III davr — Bibliografiyaning (XIX asr oxiri – XX asr boshlarida) kitobshunoslik (axborot) tsikliga oid alohida ilm sifatida shakllanishi; IV davr (hozirgi zamon) — Bibliografiyaning kitobsozlik (axborot) sohasining alohida tarmog‘i sifatida anglanishi va o‘ziga xos disiplini — bibliografshunoslikka ega bo‘lishi.

Bibliografiyaning kelib chiqishi va rivojlanish tarixi bo‘yicha chet elda ham, o‘zbek olimlari, xususan A.N. Derevitskiy, A.I. Malein, A.G. Fomin, M.N. Kufayev va K.R. Simonlar o‘zlarining hissalarini qo‘shishgan. Birinchi davr, XX asr boshlarida A.I. Malein tomonidan aniqlanganidek, “bibliografiya” so‘zining qadimgi Yunonistonda miloddan avvalgi V asrda paydo bo‘lishi va uning faoliyatini tashkil etish bilan bog‘liqdir. Ushbu so‘zning asosiy ma’nosi “kitobni tasvirlash emas, balki kitob yozish, ya’ni kitobni yaratish yoki uni tarqatish faqatgina qadimgi davrda mavjud bo‘lgan yagona usul – yozish yoki ko‘chirish orqali” edi. Boshqacha aytganda, bibliografiya o‘zining ilk paydo bo‘lishida hozirgi kunda biz “kitobsozlik” yoki kengroq tushuncha bilan “axborot faoliyati” degan ma’noni anglatgan.

Ikkinci davr Yevropada XVII asrda ilmiy tizimning shakllanishi bilan bog‘liq bo‘lib, u hozirgi kungacha ba’zi o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar bilan mavjuddir. “Bibliografiya” so‘zi boshqa ilmiy so‘zlar — bibliologiya, bibliosofiya, biblionomiya, bibliognoziya va hokazolar bilan birga kitob (kitobsozlik, axborot faoliyati) haqidagi ilmni anglatdi. K.R. Simonga ko‘ra, “bibliografiya” so‘zi allaqachon mavjud bo‘lgan tajribalardan olingan yoki analogik ilmiy nomlar (masalan, geografiya) asosida yangi yaratilgan bo‘lishi mumkin.

Bu masalada yetakchilik fransuz olimlariga tegishli. Aynan fransuzcha talqinda bibliografiya ilmi XIX asr boshlarida Rossiyada paydo bo‘lgan.

Rus bibliografiyasining alohida yangiliklari uning rivojlanishining uchinchi davrida, XX asr boshlarida namoyon bo‘ldi. Rus bibliograflari o‘z ilmiy ishlanmalari bilan endi G‘arb Yevropasi va butun dunyo bilan tenglashdi. Misol uchun, Bryusseldagi Xalqaro bibliografiya institutidagi Rossiyaning ishtiroki, N.M. Lisovskiy, A.M. Lovyagin va N.A. Rubakinning fikrlari P. Otle (shu institutning asoschilaridan biri)ning g‘oyalari bilan mos kelishini aytish kifoya. Bundan tashqari, rus olimlari ko‘plab jihatlardan, ayniqsa nazariy jihatdan, xorijlik tadqiqotchilardan oldinlab ketishgan.

Aynan hozirgi bosqichda va faqat bizning mamlakatimizda bibliografiya fani uchun yangi tushuncha kiritildi — “bibliografshunoslik”. Bu tushuncha birinchi marta 1948-yilda I.G. Markov tomonidan taklif qilingan bo‘lib, u bibliografiyani va unga oid ilmni ortiqcha tor va pragmatik tarzda tushungan: “Bibliografiya — bu kitoblarni o‘z obyekti sifatida qamrab olgan ko‘rsatkichlar va ma’lumotlar, va bibliografiya fani — bu bibliografik ko‘rsatkichlarni yaratish, rasmiylashtirish va ulardan foydalanish nazariyasidir” [2].

Turkistonni Rossiya bosib olgandan keyin bibliografiya bilan rus bibliograflari (N. V. Dmitrovskiy, V. I. Mejov va boshqalar) shug‘ullangan. 20-asr 20 — 30-yillaridan

Bibliografiya ishiga jiddiy ahamiyat berila boshlandi va hozirgi kunda muhim davlat ishiga aylangan. 1926-yildan O‘zbekiston Respublikasi Kitob palatasi, 1930-yildan Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Respublikasi davlat kutubxonasi Bibliografiya bo‘limining tashkil qilinishi o‘zbek milliy bibliografiyasining rivojlanishiga zamin yaratdi. O‘zbek tilida tuzilgan dastlabki ko‘rsatkich S. Dolimov va F. Ubaydullayevning “Mukammal ilmiy bibliografiya” (1934) asari bo‘lib, unda 3 ming kitobning tavsifi berilgan[3].

NATIJA VA MUHOKAMA. Bibliografiyashunoslik – bibliografiya nazariyasi, tarixi, metodologiyasi, texnologiyasi, metodikasi va tashkil etishni o‘rganuvchi va ishlab chiqaruvchi ilmiy fan. Bir vaqtning o‘zida bibliografik faoliyatning jarayonlarini, ayrim turlarini va qirralarini nazariy, tarixiy, metodik va tashkiliy nuqtayi nazardan u yoki bu bilim sohasining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘rganish va tadqiq qilish talab etiladi. Bu bilan xususiy bibliografiyashunoslik shug‘ullanadi. Bibliografiyashunoslik termini XVIII asrda G‘arbiy Yevropada paydo bo‘ldi. XX asrning 70-yillarida aniq ilmiy izohga ega bo‘ldi. Buning 4 ta tarkibiy bo‘limi: nazariyasi, tarixi, metodi, tashkiliy bo‘limi mavjud. Har bir davrda jamiyat taraqqiyoti madaniyatsiz, ma’naviyatsiz amalga oshmaydi, doimo insoniyat ma’naviy bilimga, dunyonи bilishga, ilm olishga, o‘zligini anglash uchun hayotni tushunishga ehtiyoj sezadi.

Tevarak-atrof, voqealar va hodisalar, ularning mohiyati, mazmuni, maqsadi, ijtimoiy-siyosiy voqealar, ularning asl mazmuni, maqsadi, foyda va zarari haqida bilim beruvchi, kishilarni ezgulikka, yaxshilikka chaqiruvchi, ruhiy ozuqa beruvchi adabiyotlar haqida tezkorlik bilan, maqsadga mos holda ma’lumot beruvchi ikkinchi darajali hujjatlar – bibliografik mahsulotlardir. Turli xil yo‘nalishda tuzilgan bibliografiyalarning ahamiyati quyidagilarda ko‘rinadi:

1. Bibliografiya undan oldingi davrda yaratilgan madaniy boyliklarimiz, kitobatchilik, nashriyotchilik ishi tarixi haqida, rivoji haqida ma’lumot beradi.
2. Adabiyotlarning mazmuni, maqsadi, undagi asosiy masalalar, muammolar bilan tanishtiradi.
3. Kitobxon uchun yangi ma’lumot beradi.
4. Kitobxonga o‘qish uchun eng zarur adabiyotlarni tavsiya qiladi.
5. Kitobxonga adabiyot tanlashda yordam beradi.
6. Adabiyot tavsiya etadi.
7. Jamiyat hayotida faol ishtirok etishga, biror-bir sohada muvaffaqiyatlarga erishishda turtki bo‘ladi.
8. Shaxsiy hayotida o‘zgarishlar bo‘lishi uchun zamin yaratadi.
9. Kitobxonda o‘qish madaniyatini, axborot bilan ishslash madaniyatini tarbiyalaydi.
10. Ilmiy-tadqiqot ishlari, tarixni o‘rganish uchun muhim manba bo‘lib qoladi.

Har qanday ilmiy ish va mustaqil ta’lim tegishli adabiyotlarni tanlash va ular bilan tanishish – tanlangan mavzu bo‘yicha adabiyotlar ro‘yxatini shakllantirishdan boshlanadi. Har qanday turdagи maqola yoki ilmiy ishda foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (bibliografiya) bo‘lishi shart. Bibliografiya ilmiy ishlarda muhim o‘rin tutadi, tadqiqotchilarga tadqiqot olib

borish, tahlil qilish va ilmiy ishlarni yozish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlardan foydalanish imkoniyatini beradi. Bu tadqiqotchilarga mavzu bo‘yicha harakat qilish, tegishli manbalarni topish va ilmiy xulosalarini tasdiqlash va asoslashda yordam beradi. Bibliografiya tadqiqotchilarga kitoblar, jurnallar, maqolalar, dissertatsiyalar va boshqa nashrlar kabi turli xil axborot manbalaridan foydalanish imkonini beradi. U tadqiqotchilarga tadqiqot predmetini o‘rganish uchun zarur materiallarni topishga, shuningdek, o‘z ilmiy xulosalarini tasdiqlashga yordam beradi. Bibliografiya tadqiqotchilarga axborot manbalarining sifati va ishonchlilagini baholashga yordam beradi. Ular muallif, nashriyot, sharhlar va iqtiboslar kabi bibliografik ma’lumotlardan foydalanishlari mumkin, manbalar qanchalik ishonchli ekanligini va ular tadqiqotida qanday rol o‘ynashi mumkin. Bibliografiya tadqiqotchilarga o‘z mavzulari bo‘yicha adabiyotlarni ko‘rib chiqish imkonini beradi[4].

XULOSA. Bibliografiya tushunchasining tarixiy rivojlanishi va uning qadimiy davrdan zamonaviy zamonga qadar o‘zgarishlari tahlil qilindi. Qadimgi Yunonistonda boshlanib, bibliografiya dastlab kitob yozish va tarqatish bilan bog‘liq faoliyatni anglatgan. Vaqt o‘tishi bilan bu tushuncha kengayib, ilmiy sohalarga kirib, kitobsozlik va axborot faoliyatini o‘z ichiga oldi. Rus olimlarining bibliografiya fani rivojiga qo‘shtgan hissasi alohida ahamiyatga ega bo‘lib, ular nafaqat mavjud bilimlarni o‘zlashtirdilar, balki yangi ilmiy yondashuvlar va g‘oyalarni kiritdilar.

XX asr boshlarida rus bibliografiyası dunyo miqyosida yirik ilmiy markazlardan biriga aylandı. Bugungi kunda esa bibliografiya fani, yangi axborot texnologiyalarining kirib kelishi bilan, ilmiy va amaliy jihatdan yanada rivojlanib, o‘zining alohida sohasi — bibliografshunoslikni shakllantirdi. Shunday qilib, bibliografiyaning qadimiy va zamonaviy talqinlari orasidagi o‘zgarishlar uning jamiyatdagi ahamiyatini va ilmiy-axborot tizimidagi rolini yanada kuchaytirdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Berdiyeva Z., Mamtraimova H., Zokirova T. Bibliografiya. – T.: O‘qituvchi, 2013. – 204.
2. Гречихин А. А. Общая библиография //М.: Изд-во МГУП. – 2000.
3. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Bibliografiya>. Turkistonda- bibliografiya ishi. 9-15 –asr.
4. Sohibaxon Y. Ilmiy adabiyotlar bo‘yicha bibliografiyasini shakllanishi va rivojlanishining nazariy masalalari //Oriental Art and Culture. – 2024. – T. 5. – №. 2. 581-588 b.